

IJTIMOIY ISHDA OILA BLAIN BOG'LIQ KASBIY AXLOQ MASALALARI

Abduraxmonova Shahnozabonu,
Talaba Farg'ona davlat universiteti

Adhamova Xosiyatxon,
Talaba Farg'ona davlat universiteti

Xudoyberdiyeva Hilolaxon,
Talaba Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila va axloq masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek ijtimoiy ishda oila blain bog'liq kasbiy axloq masalalari o'r ganilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy ish, axloq, oila, ijtimoiy himoya, kasb etikasi.*

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti munosabatlari modernizaçiyalashuvi muammolaridan biri hisoblangan halqimizning, asosan shaxsning intellektual madaniyat darajasi bilan jamiyat intellektual madaniyatini o'zaro amal qilish doirasi, bir-biri bilan ta'sirlashuv xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy va madaniy jihatdan tadqiq etish respublikamizda mutaxassis-kadrlarni zamonaviy ilm-fanning ilg'or yutuqlarini amaliy hayotga qo'llay oladigan yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ziyoli inson sifatida tarbiyalash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato-kamchiliklarni oldini olishga yordam beradi. Xusan, yoshlarning intellektual madaniyatini rivojlantirish borasida ta'lim dargohlarida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat ta'lim standartlari asosida barcha zamonaviy shart-sharoitlar yaratib berildi.

O'zbek xalqi farovon turmush va yuksak taraqqiy etgan fuqarolik jamiyatni sari dadil qadam tashlab borar ekan bu borada shaxs intellektual madaniyatini oshirish hamda undan oqilona foydalanish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Mustaqillik davrida mazkur masalani ijobiy hal etish yuzasidan juda ko'nlab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va loyihalar ijtimoiy hayotga tadbiq etildi. Bundan tashqari xalq ta'limida va oliy ta'limda ijobiy o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi. Umuman bugungi kunda mustaqillikni mustaxkamlash va buyuk kelajakni yaqinlashtirish, hozirgi o'sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalashga, yuksak ma'rifatga ega bo'lgan intellektual madaniyatli shaxs darajasiga olib chiqishga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida yuksak ma'naviyatli shaxsnini tarbiyalash masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. O'z navbatida, globallashuv jarayoni ham shaxs ma'naviyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Globalshuv jarayoni, asosan, xalqaro iqtisodiy aloqalarning, axborot texnologiyalari va fan-texnikanining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Globalashuv ishlab chiqarishning keskin rivojlanishiga, mos mutaxassis kadrlar tayyorlashga yangicha talablar qo'yemoqda. Buning boisi, iqtisodni rivojlantirish bilan malakali kadrlar tayyorlash o'zaro uzviy bog'langan. Ishlab chiqarish buyurtmachi va iste'molchi munosabatlarini o'zida mujassamlashtirgani holda, malakali kadrlar tayyorlash,

qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonining asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlashning yo'nalishlarini belgilaydi, ularning sifatiga yangicha talablar qo'yadi, ta'lif sohasini moliyalashtirishga o'zining hissasini qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri alohida ko'mak va e'tiborga muhtoj insonlarga manzilli yordam ko'rsatish bo'lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning prinsipial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bilan ishlashda bilim va ko'nigmaga ega bo'lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – "Ijtimoiy ishchi"ga zaruriyat yuzaga keladi. Shu o'rinda yetim va ota-onal qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasalar va ularda tarbiyalanayotgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tarbiyalanuvchilarining turli yosh va davrlaridagi ruhiy, ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushunish, mazkur bolalarga profilaktik, sog'lomlashtirish, abilatsion va reabilitatsion choralarining majmuuni ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, muassasadan so'ng mustaqil hayotga tayyorlash kabilarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 7 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonni imzoladi va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasidagi to'rtinchchi yo'nalishida aynan aholini ijtimoiy qilishga katta e'tibor berildi.

Shuningdek, mustaqillik yillarda yetim va ota-onal qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy-profilaktik ish olib borishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ular asosida "Mehribonlik", "Bolalar" uyilari hamda "Bolalar shaharchasi" to'g'risidagi Nizomlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning 22-moddasida ham boquvchisini yo'qotgan bolalar haqida shunday deyilgan. "Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalgalash oshiriladi". Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasini tomonidan maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinganligi va amaliyotga joriy etilganligi, aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ota-onal qaramog'isiz qolgan bolalarni qo'llab quvvatlash bo'yicha yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar respublikamizda ijtimoiy soha rivojlanishi dalolatdir. Zamonaviy jamiyatda ota-onal qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy hamoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga e'tibor ortgani sayin ular bilan samarali ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislarga – ijtimoiy ish xodimlariga bo'lgan talab ham ortmoqda.

Kasbiy axloq fanda, xususan, ijtimoiy ishda ikki tomonlama anglanadi. Bir tomonidan, bu kasbiy faoliyat davomida kishilararo munosabatlarga tegishli xususiyat beruvchi va kasb moxiyatiga mos qadriyatlar, xulq-atvorning axloqiy tamoyillari va me'yorlari jamlamasi borasidagi fan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kasbiy axloq – bu ijtimoiy ishning bosh qadriyatları va g'oyalari doirasida ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy uyg'unligidir. Ijtimoiy ish xodimi kasbiy axloqining ma'naviy kengligi – bu og'ir xayotiy vaziyatdagi insonga "inson – mijozlarning ijtimoiy muhiti" tizimini o'zgartirish orqali ijtimoiy yordamni ta'minlash jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlardir. Shu bilan birga, shaxsiy va umumjamiyat manfaatlariga erishish jarayonida ijtimoiy ish xodimi o'z xamkasblari, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan qonun doirasida munosabatlarni o'rnatishi zarur.

Ijtimoiy ish ahloqining bosh vazifalari – baholash, tartibga solish, tashkil etish, boshqarish, turtki berish, muvofiqlashtirish, chegaralarni belgilash, ishlab chiqarish, muloqotga kirishish, nizolarni bartaraf etishlardan iborat.

Ijtimoiy ish xodimining kasbiy axloqi bilan bog'liq asosiy g'oyalalar axloq kodeksida o'z aksini topgan. Ijtimoiy ish xodimining axloq kodeksi – bu uyushma va ijtimoiy ishning mutaxassis xodimlari ittifoqi tomonidan bajarilishi qayd etilgan kasbiy faoliyatda axloqiy munosabatlar standarti bo'lib xizmat qiluvchi ma'naviy me'yorlar majmuidir. Axloqiy me'yorlar asosida umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, axloqiy xayriya an'analari, boshqa davlatlar axloq kodekslari tajribasi, mutaxassislarning shaxsiy qadriyatları va g'oyalari yotadi.

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining barcha yo'naliishlariga nazar solsak, ular orasida ota-on aqamog'isiz qolgan bolalar bilan ish olib borish alohida o'zining xususiyatlariga egaki, bunda ijtimoiy ish xodimining majburiyatları, ushbu kasb egasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Institutsional muassasalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy ish xodimlari ko'pincha axloqan murakkab vaziyatlar bilan to'qnash keladi. Xususan, tibbiyotdagi axloqiy muammolar yangiliklarda tez-tez muxokama qilinadi. Ammo, ijtimoiy ish qaysidir ma'noda noyobdir, chunki u paradoksli xolatdir. Paradoks (yunon. Kutilmagan, g'alati) – kutilmagan, noadatiy, an'analarga zid tasdiqlar, fikrlash yoki xulosadir. Umuman kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ishdagi 4 paradoksni alohida kursatish mumkin.

Birinchi paradoks – moddiy to'kis aholi yordamida ojiz qatlamlarni qo'llab-quvvatlash. Bir tomonidan, boshqa kasblardan ko'ra, ijtimoiy ishning maqsadi kamsitilish ob'ekti bo'lganlar yoki ijtimoiy ojiz qatlamlar yoki marginallarga yordam berish bo'lsa ikkinchi tomonidan, u to'kis aholi qatlamlari va davlat tomonidan tashkil qilingan, qo'llab-quvvatlanadi va xomiylig qilinadi.

Ikkinchi paradoks – mijoz bilan xamkorlikdagi ishning maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ma'qul me'yorlarga roya qilish. Bir tomonidan, ijtimoiy ish xodimlarning o'z xizmatlari iste'molchilar bilan xamkorligi olqishlansa, ikkinchi tomonidan, ijtimoiy ishning ko'pchilik yo'naliishlari – qariyalar, ruxiy og'ishlar, bolalar va oila bilan ishslashda ijtimoiy me'yorlarga roya etish majburiyatiga ehtiyoj sezilsa, bir qarorga kelishda esa qonunlarga murojaat qilishga yo'naltirilgan.

Uchinchi paradoks – mijoz va uning extiyojlarini ximoyalash hamda cheklangan zaxiralar. Bir tomondan, ijimoiy ish xodimlari mijozlarning ximoyachisi bo'lishlari va ularning extiyojlarini ta'minlashlari kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ish xodimi cheklangan zaxiralar muammosiga duch keladi. Amalda ijimoiy ish xodimlari xizmatlar iste'molchilarida ba'zi turdagи xizmatlarni ko'rsatish imkonи cheklanganligi to'g'risidagi ogoxlantirishlarga duch keladilar.

To'rtinchи paradoks – adolat axloqi va g'amxo'rlik axloqi. Adolat axloqi o'ziga ishonch va adolatga asoslansa, g'amxo'rlik axloqi asosida esa, "ayollar" ma'naviyati, boshqa bir inson borasida qayg'ura olishga yo'naltirilgan o'zi-o'zidan kecha olish xissiyoti yotadi.

Xulosa o'rnida aytish zarurki, tartiblar va kodekslar har bir kasb uchun zaruriy va muhimdir. Ammo yaxshi ijtimoiy ish xodimi bo'lish ko'p sonli tartib qoidalarga bo'ysunishgina degani emas. Axloqiy ijtimoiy ish bellashuvchilik sodiqlik va bellashuvchi talablar o'rtasida murakkab me'yorlashtiruvchanlikni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICAL CULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. Интернаука, (11-2), 50-51.
2. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor, (5), 8.
3. Abdurakhmonova, M. M. ugли Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 384-388.
4. Karimov, U., & Abdurakhmon, A. (2017). INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Форум молодых ученых, (5), 9-12.
5. Каримов, У. У. (2017). РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017) (pp. 1189-1192).
6. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1368-1372).
7. Каримов, У., Хакимова, Д., & Тулкинов, З. (2018). ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. Теория и практика современной науки, (10), 193-195.
8. Каримов, У. (2017). ИНФОКОМТЕХНОЛОГИИ (ИКТ) ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ЛИЧНОСТИ. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017) (pp. 1160-1163).
9. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS. Журнал естественных наук, 1(1).

10. Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2021). АХБОРОТ ОҚИМИ ВА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. *Scientific progress*, 2(3), 743-750.
11. Umaralievich, K. U. SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES ON THE BASIS OF CULTURAL AND HUMANISTIC APPROACH.
12. Karimov, U. U. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family. *Oriental Journal of Social Sciences*, 37-40.
13. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
14. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.
15. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 2(1).
16. Каримова, Г., Акбарова, М., Акрамжонов, Қ., & Йўлдашева, Г. (2021). ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Интернаука*, (10-3), 42-43.
17. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ АХБОРОТЛАШУВ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.
18. Isroilov, M. (2022). The system of education and its interaction with the concept of spirituality. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(1), 88-93.
19. Ismoilovich, I. M. (2021). THE SOCIETY IS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT PRIORITY IN EDUCATION SYSTEM REFORM FUNCTIONS.
20. Ismoilovich, I. M. (2021, July). ISSUES OF TRANSFORMATION OF EDUCATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES. In Euro-Asia Conferences (pp. 227-239).